

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor

_____U.N.Abdiyev

«FORS TILI»

fanidan ishchi dastur

Bilim sohasi : 100000-Ta`lim

Ta`lim sohasi : 140000- O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika
fani

Bakalavriat yo`nalishlari: 5141100- o`zbek tili va adabiyoti

5140600 – tarix

(kunduzgi bo`lim uchun)

A N G R E N – 2006/2007

ANNOTATSIYA

Dastur pedagogika oliy o'quv yurtlari filologiya fakul'tetlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda fors tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari, fonetik va morfologik qurilishini o'zbek tiliga qiyoslab o'rgatilishi ko'zda tutilgan.

Boy milliy merosimizni o'rganishga yangicha yondashilayotgan bugungi kunimizda fors tilini mukammal egallagan mutaxassislarga talablar ortishi tabiiy, zero ma'naviy merosimizning bir qismi aynan shu tilda bitilgan. Dastur mutaxassis kadrlarga zamonaviy talablarni hisobga olib tuzildi.

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida nashrdan chiqarilgan dasturiga asoslanib tuzib chiqilgan. TVDPI «Sharq tillari va yozuvi» kafedrasining yig'ilishida muhokama qilingan.

2006 yil «» dagi №1-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: o'qituvchilar: S.Mansurov, A.Ahmedov

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi dotsent I.Nosirov,
f.f.nomzodi M.Abdullayev

Kafedra mudiri:

f.f.nomzodi M.Abdullayev

S O`Z B O S H I

1.1. O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligini qo`lga kiritgach, boy milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma`naviy merosimizni o`rganish dolzarb vazifa ekani davlat hujjatlarida o`z ifodasini topdi. Ma`lumki, ana shu boy manbalarning ma`lum qismi fors tilida bitilgan.

Fors tili kursining asosiy maqsadi ana shu tilni mukammal egallagan, uni ilmiy izlanishlarda qo`llay oladigan, mazkur tilda bitilgan tarixiy manbalarni o`qiy va tadqiq eta oladigan etuk mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

Fors tili kursining vazifalari:

- talabalarda fors tilida so`zlasha olish, so`zlarni qo`shib gap tuzish, amaliy ko`nikmalari bilan qurollantirish;
- fors tilining fonetikasi, leksikasi, morfologiya, sintaksisi bo`yicha aniq va sistemali bilim berish;
- talabalarning lug`at boyligini oshirish va uni shakllantirish;
- talabalarni tarixiy qo`lyozmalar tili, yozuv turlari, qo`lyozma asarlar va ularning xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Fors tilidan egallangan bilimlar eski o`zbek tili va yozuvi fanidan olgan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek fors yozuvida bitilgan qo`lyozma manbalarni o`qish va ularni tahlil qilishda asosiy hamkor bo`lib hisoblanadi.

1.2. Talabalar fors tilini o`rganish jarayonida quyidagi bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashi lozim:

- fors tilida yozilgan o`rtacha murakkablikdagi bosma matnlar va qo`lyozma asarlarni o`qish, lug`at yordamida tarjima qilish;
- matnda fommatik hodisalarni kuzatish, tahlil qilish va tushuntirib bera olish;
- fors tili grammatikasining asosiy qoidalarini o`zlashtirish;
- talab darajasida lug`aviy boylikka ega bo`lish;
- o`zbek tiliga o`zlashgan forscha so`z va so`z birikmalarining ma`nosi va tarkibini tushuntira olish;
- o`rganilgan mavzular doirasida o`z fikrlarini og`zaki va yozma bayon eta olish va arab-fors yozuvida yoza olish;
- o`qilgan matnni fors tilida o`z so`zi bilan aytib bera olish maishiy mavzularda erkin savol-javob qila olish.

1.3. Talabalar eski o`zbek yozuvi, o`zbek mumtoz adabiyoti, g`azal tahlili, o`zbek adabiy tili tarixi, o`zbek tilining tarixiy fommaticasi va tarix fanlarini o`rganish jarayonida forscha atama va iboralarga duch keladilar. Shunday kezlarda fors tilidan olingan bilim va ko`nikmalar katta va samarali yordam berishi shubhasizdir.

1.4. Mazkur kursni o`rgatishda ta`limning interaktiv metodlari, fors tilida yozilgan audio-video yozuvlar, turli xil ko`rgazmali qurollar, fors tilini o`rganishga mo`ljallangan forscha elektron darslik va forscha teledasturlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.5. «**Fors tili**» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi:

«Fors tili» fanini o`zlashtirish uchun talabalar quyidagi fanlardan ham xabardor bo`lishlari va shularga tayanishlari lozim:

1. Qadimgi turkiy til.
2. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi.
3. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tili.
4. Eski o`zbek tili va yozuvi
5. Arab tili.
6. Manbashunoslik.
7. Matnshunoslik.
8. Xattotlik san`ati.
9. Eski o`zbek yozuvi, arab tilining qiyosiy grammatikasi.
- 1.6. «Fors tili» fanini o`qitish semestrlari va uslubiy ko`rsatmalari.

«Fors tili» fanidan tajriba va amaliy mashg`ulotlar o`quv rejasiga binoan kurslar bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

II kurs, III semestr 40 soat (O`zbek tili va adabiyoti), II kurs, 1-II semestrlar 42-42 soat, (Tarix); III kurs V- semestr 55 soat (O`zbek tili va adabiyoti).

1.7 REYTING JADVALI

Fanga ajratilgan yuqori ball 100; saralash bali 55.

T/r	Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli bo'yicha ballar	Nazorat shaklini o'tkazish vaqti
1	Joriy nazorat	1. Mashg'ulotga qatnashish		
		2. Mashg'ulot mobaynida faollik		
		3. Daftar yuritish		
		4. Tajriba mashg'ulot topshiriqlarini bajarish		
		5. Mashqlar ustida ishlash		
	JAMI			
	Yakuniy nazorat	Og`zaki savol-javob, yozma ish, test.		Semestr yakunida
	jami fan bo'yicha			

Ballarning foizlarda ifodalanishi: 86%-100% «a'lo»

71%-85% «yaxshi»

55%-70% «qoniqarli»

0-54% «qoniqarsiz».

2. Mashg'ulotlarning mazmuni

T/r	Mavzular	Jami	Auditoriya soatlariya	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Tajriba mashg'uloti	JN, ON, YaN	Mustaqil ish	Vaqt
1	Fors tili fanining maqsad va vazifalari.					2			
2	Unlilar.					2			
3	Undoshlar.					2			
4	So`z urg`usi.					2			
5	Arab, fors alifbosi.					2			
6	Harakatlar.					2			
7	Unlilarning yozilishi. Alif –xe (1-9) harflar.					2			
8	Fors alifbosidagi har bir harfning grafik xususiyatlari. (10-20) harflar.					2			

9	Harflarning grafik xususiyatlari.(21-32).					2			
10	Abjad hisobi.					2			
11	Ikki tarkibli ot kesimli gap.					2			
12	So`roq gaplar.					2			
13	Ast bog`lamasining tuslanishi.					2			
14	Olmoshlar. Egalik qo`shimchalari.					4			
15	Izofa. Izofa zanjiri					4			
16	Otlarning ko`pligi.					2			
17	Son. Sanoq sonlar. Tartib sonlar.					4			
18	Fe'l. Fe'l o`zaklari. (tom, qiyosiy, semoiy).					4			
19	Fe'l zamonlari.					2			
20	O`tgan zamon davom fe'li.					2			
21	Ko`makchilar.					4			
22	RO – ko`makchisi.					2			
23	Birlik yoki noaniqlik ko`makchisi.					2			
24	O`tgan zamon sifatdoshi.					2			
25	O`tgan zamon hikoya fe'li. O`tgan zamon ravishdoshi.					2			
26	Yozma ish.					2			
27	Uzoq o`tgan zamon fe'li.					2			
28	Hozirgi kelasi zamon fe'li.					2			
29	Fe'ning orzu istak mayli.					2			
30	Fe'ning gumon shakli.					2			
31	Kelasi zamon fe'li.					2			
32	Fel'ning buyruq mayli.					2			
33	Fe'ning majhul nisbati.					2			
34	Fe'ning orttirma nisbati.					2			
35	Yozma ish.					2			
36	Sifat darajalari.					2			
37	Sifatlarning yasalishi.					2			
38	Fe'llarning yasalishi.					2			

39	Otlarning yasalishi.					2			
40	Yozma ish					2			
41	Payt ergash gapli qo`shma gaplar.					2			
42	Shart ergash gapli qo`shma gaplar.					2			

3. Tajriba mashg`uloti mavzulari va ularning mazmuni

(O`zbek filologiyasi II-III-kurs 1Y-Y-semestr, tarix II-kurs III-1Y-semestr)

1-mavzu: Fors tili fanining maqsad va vazifalari (2 soat)

Fors tili fanining maqsad va vazifalari haqida ma'lumot. Tarixi: (qadimgi va o`rta va yangi). qaysi tillar oilasiga mansubligi, taraqqiyot bosqichlari. Fors tilining turkiy adabiyotda tutgan o`rni. Hozirgi zamon fors adabiy tili.

Adabiyotlar: (1, 3-7)

2-mavzu: Unlilar (2 soat)

Fors tili unlilarining fonetik ifodasi, talaffuzi, qisqa va cho`ziqligi, yozuvda ifodalanishi. Har birini misollar orqali tushuntirish. Forsiy so`zlar talaffuzini o`rgatish.

Adabiyotlar: (1, 8-10).

3-mavzu: Undoshlar (2 soat)

Undoshlarning so`zdagi talaffuzi va xususiyatlari. Jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, portlovchi undoshlar, bo`g`iz undoshlar. Husnixat mashqlari, savol javoblar.

Adabiyotlar: (1,11-13).

4-mavzu: So`z urg`usi. (2 soat)

Dinamik urg`u haqida ma'lumot. Erkin va bog`liq urg`ular. Chet tillardan kirib kelgan so`zlardagi urg`u. Urg`usiz talaffuz etiladigan so`z bo`laklari: izofa ko`rsatkichi e, yoyi vahdat – i, ro ko`makchisi, bog`lamaning qisqa shakllari, bog`lovchilar va egalik qo`shimchalari.

Adabiyotlar: (1,14-16).

5-mavzu: Arab fors alifbosi. (2 soat)

Fors yozuvi haqida. Arab alifbosiga qushilgan forsiy harflar. Harflarning qo`shilishi yoki qo`shilmasligi, shakldosh harflar. Fors tiliga xos bo`lmagan tovushlar haqida ma'lumot.

Adabiyotlar: (1,17-19).

6-mavzu: Harakatlar. (2 soat)

Qisqa va cho`ziq unlilar. Harakatlar haqida ma'lumot: zabar, zir, pish. Sukun, tashdid, madd, hamza, tanvin. Savol javoblar, husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,20-22).

7-mavzu: Unlilarning yozilishi. Fors alifbosidagi har bir harfning grafik xususiyatlari. (1-9 harflar). (2 soat)

Alifdan to x harfigacha (1-9) bo`lgan harflarning 1yozilish tarzlarini ko`rsatish. Cho`ziq unlilar: alif, vov, yoy, harflarining unlilarni ifodalashi. Arab fors alifbosi jadvali. Harflarning yozilishini sharhlash. Savol javoblar, husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,22-25).

8-mavzu: Fors alifbosidagi har bir harfning grafik xususiyati. (10-20 harflar). (2 soat)

Alifbo tartibidagi 10-harfdan 20-raqamgacha bo`lgan harflarning tafsiri. Harflarning yozma va bosma shakllari haqida ma'lumot berish. Yangi lug`atlarni o`zlashtirish, husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,26-28).

9. Fors alifbosidagi har bir harfning grafik xususiyati. (21-32 harflar). (2 soat)

Alifbo jadvalidagi 21-raqam harfdan 32-raqamgacha bo`lgan harflarning grafik xususiyatlari haqida ma'lumot. Qulyozma va boshqa matnlar haqida ma'lumot. Husnixat mashqi, mavzuga oid savol javoblar.

Adabiyotlar: (1,29-33).

10-mavzu: Abjad hisobi. (2 soat)

Harflarning son Kiymati haqida ma'lumot. Quyidagi so`zlarni sharhlash: abjad, havvaz, hutti, qalaman, sa'ufas, qarashot, saxxas, zazar. Tarixlar haqida ma'lumot. Hijriy yilni milodiyga va milodiy yilni hijriyga aylantirish. Savol va javoblar.

Adabiyotlar: (1,34-36).

11-mavzu: Ikki tarkibli ot kesimli gap. (2 soat)

Gapning eng sodda turi – ega va kesimdan iboratligi. Ot-kesim, ot, sifat, ravish, olmosh bilan ifodalanishi. Ast bog`lamasi. Ot-kesimli gaplarda so`z tarkibi. Ast – bog`lamasining bo`lishsiz shakli nist haqida. Ast – bog`lamasining yozilishi. Yangi lug`atlarni o`zlashtirish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,37-39).

12-mavzu: So`roq gaplar. (2 soat)

So`roq gaplar haqida ma'lumot. Fors tilida so`roq gap o`zbek tilidagi kabi darak va undov gaplardan ohangning turi bilan farqlanishi. So`roq ma'nosini anglatadigan mustaqil so`roq so`zlar. So`roq yuklamalari. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,40-41).

13-mavzu: Ast – bog`lamasining tuslanishi. (2 soat)

Ot-kesim tarkibiga kiradigan ast – bog`lamasining tuslanishi. Bo`lishli va bo`lishsiz shakllari. Inkori ma'noli gaplarda bog`lamaning qisqa shpakli nist so`zi haqida. Bog`lamaning to`liq shakli xast so`zi haqida. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, matnlarni tarjima qilish va so`zlab berish. Lug`at ustida ishlash.

Adabiyotlar: (1,42-45).

14-mavzu: Olmoshlar. Egalik qo`shimchalari. (4 soat)

Kishilik olmoshlari haqida ma'lumot. Egalik qo`shimchalarining yozimlishi. So`roq olmoshlari. Ko`rsatish olmoshi, o`zlik olmoshi. So`roq olmoshlarini ifodalaydigan so`zlar jadvali. Mavzuga oid vazifalarni bajarish.

Adabiyotlar: (1,46-50).

15-mavzu: Izofa. Izofa zanjiri. (4 soat)

Aniqlanmish va aniqlovchi o`rtasidagi aloqa. Fors tili gap so`z va birikmalarida so`z tartibi. Izofaning yozilishi. Izofali birikma anglatgan ma'nolar. Izofa zanjiri. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, husnixat mashqi. Adabiyotlar: (1,51-55).

16-mavzu: Otning ko`pligi. (2 soat)

Otning ko`pligi haqida ma'lumot. Fors tilida –on, -xo qushimchalarini qo`shish orqali hosil qilinishi. –on qo`shimchasi qo`shiladigan so`z unli bilan tugagan bo`lsa, ba`zi bir fonetik o`zgarishlar yuz berishi. Fors tilida arabcha ko`plik shakllari: -in, -un, 0ot va –jot qo`shimchalari haqida ma'lumot. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, lug`at ustida ishlash, husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,56-58).

17-mavzu: Son. Sanoq sonlar. Tartib sonlar. (4 soat)

Son haqida umumiy tushuncha. va ularning yasalishi. Birliklar, o`nliklar, yuzliklar, mingliklar. 20 dan 100 ga qadar bo`lgan unlilar. Birliklar bilan, va bog`lovchisi bilan bog`lanishi. VA bog`lovchisi o`zidan oldingi songa qo`shilib u tarzida talaffuz qilinishi va yozuvda ajratib yozilishi. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, lug`atlar ustida ishlash, husnixat mashqi.

Tartib son. Tartib sonlarning yasalishi, yozilishi va tadaffuzi. Son kategoriyalarining qo'llanish o'rinlari. Tarkibli sonlardan tartib son yasovchi –um, -umin qo'shimchalari, sonning oxirgi qismiga qo'shilishi. Fors tilida (2), se (3) sonlaridan tartib son yasalganda ba'zi fonetik o'zgarishlar yuz berishi. Hafta kunlarining forsha nomlanishini yodlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, lug'at bilan ishlash. Adabiyotlar: (1,59-61).

18-mavzu: Fe'l. Fe'l o'zklari. (4 soat)

Fe'l haqida umumiy ma'lumot. Fe'llarning noaniq shakli. Fe'l o'zklari. Fe'lning o'tgan zamon o'zagi. Fe'lning hozirgi zamon o'zagi, uning turlari va ular haqida to'liq ma'lumot. Tom fe'llar, qiyosiy fe'llar, samoviy fe'llar. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Matn ustida ishlash. Husnixat mashqi. Adabiyotlar: (1,85-71).

19-mavzu: Fe'l zamonlari. (2 soat)

Ular haqida ma'lumot. Fe'llarda uch zamonning mavjudligi: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon. Zamonlarning forsha ifodalanishi: fe'li moziy, fe'li muzore, fe'li mustag'bal yoki fe'li oyande. O'tgan zamon fe'li ma'nodagi farqlariga ko'ra turlarga bo'linishi. O'tgan zamon aniq fe'li va uning yasalishi. Matn ustida ishlash. Shaxs-son qo'shimchalarini yodlash, husnixat mashqi. Adabiyotlar: (1,72-74).

20-mavzu: O'tgan zamon davom fe'li. (2 soat)

O'tgan zamon aniq fe'li bilan o'tgan zamon davom fe'lining farqi. O'tgan zamon davom fe'lida urg'uning o'rni. O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli. O'tgan zamon davom fe'li bildirgan ma'nolar. O'tgan zamon davom fe'li va o'tgan zamon aniq fe'lining yozilishi. 1,2,3-vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi, lug'atlar bilan ishlash. Adabiyotlar: (1,75-79).

21-mavzu: Ko'makchilar (4 soat)

Asl ko'makchilar: -az, -bo, -bar, baroye, -be, -bi, -to, -juz, -dar, -varo ko'makchilarining ifodalanish ma'nolarini misollar orqali tushuntirish. 1,2,-vazifalarni bajarish, matn ustida ishlash, husnixat mashqi. Adabiyotlar: (1,80-85).

22-mavzu: RO ko'makchisi. (2 soat)

RO ko'makchisi aniq, ma'lum bo'lgan narsa yoki hodisani ifodalayotgan vositasiz to'ldiruvchiga qo'shib kelishi. RO ko'makchisi tushib qolmaydigan o'rinlar. RO ko'makchisini o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoki undan ajratib yozilishi. Mavzuga oid vazifalarni bajarish, husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,86-90).

23-mavzu: Yoye vahdat – birlik yoki noaniqlik ko`makchisi. (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Yoye vaxdatning yozilishi. a) undosh bilan qo`shilgan so`zlarga qo`shilganda; b) e tovushi bilan tugagan so`zlardan so`ng; v) o va u unlilari bilan tugagan so`zlardan so`ng; g) i tovushi bilan tugagan so`zlar oxiriga qo`shilganda. Matn ustida ishlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,91-93).

24-mavzu: Sifate maf`uli - o`tgan zamon sifatdoshi (2 soat)

Jadval yuzasidan tushuntirish. Fors tilida o`tgan zamon sifatdoshi mustaqil holda va qo`shma fe'llarning tarkibiy qismi sifatida qo'llanilishi; a) sifat sifatda aniqlovchi vazifasini bajarishi; b) otlashgan vaqtda, otlar bajargan vazifalarni bajarishi.

Hozirgi zamon sifatdoshi haqida ma'lumot. Kelasi zamon sifatdoshi haqida ma'lumot. Matn ustida ishlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish.

Adabiyotlar: (1,94-99).

25-mavzu: Moziye nag`li - o`tgan zamon hikoya fe'li. (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. O`tgan zamon hikoya fe'lining yasalishi. Guftan fe'lini tushlash. O`tgan zamon hikoya fe'lining bo'lishsizi. Matn ustida ishlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish.

Adabiyotlar: (1,100-103).

26-mavzu: Yozma ish (2 soat)

27-mavzu: Moziye baid - uzoq o`tgan zamon fe'li (2 soat)

Misollar orqali tushuntirish. Uzoq o`tgan zamon fe'lining yasalishi. Raftan – bormoq so`zining tuslanishi. Uzoq o`tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli. Matn ustida ishlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,104-106).

28-mavzu: Hol - hozirgi kelasi zamon fe'li (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Hozirgi kelasi zamon fe'lining yasalishi. Shaxs-son qo`shimchalari. Raftan bormoq so`zining tuslanishi. Hozirgi kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli. Matn ustida ishlash. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Tarjima va lug`at. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,107-111).

29-mavzu: Muzore'e eltezomi – fe'lining orzu-istak mayli (2 soat)

Harf zadan – soʻzlamoq, gaplashmoq soʻzining tuslanishi. Hozirgi kelasi zamon feʼli orzu-istak maylining boʻlishsizi. Hozirgi kelasi zamon feʼlining orzu-istak mayli (aorist)ning qoʻllanishi: a) masdar ergash gaplarda; b) agar, to yordamchi soʻzlar bilan boshlangan shart ergash gaplarda; v) toʻldiruvchi ergash gaplarda; g) boyad – kerak, lozim ast – lozim kabi zaruriyat bildirgan soʻzlardan soʻng. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,112-116).

30-mavzu: Moziye eltezomi – feʼlining gumon shakli (2 soat)

Feʼlining gumon shaklida urgʻuning oʻrni. Raftan - bormoq feʼlining tuslanishi. Feʼlining gumon shaklining boʻlishsizi. Mavxuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,117-118).

31-mavzu: Feʼle mustagʻbal – kelasi zamon feʼli (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Kelasi zamon feʼlining tarkibiy oʻqismlari. Kelasi zamon feʼlining boʻlishsizi. Matn ustida ishlash. Mavzuga oimd vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,119-122).

32-mavzu: Vajhe amri – Feʼlining buyruq mayli (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Buyruq feʼlining yasalishini jadval vositasida sharhlash. Buyruq feʼlining boʻlishsizi. Matn ustida ishlash. Tarjima va yangi lugʻatlar. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,123-126).

33-mavzu: Feʼle majhul – Feʼlining majhul nisbati (2 soat)

Misollar sharhi. Jadval yuzasidan tushuntirish. Majhul feʼlining boʻlishsizi. Matn ustida ishlash. Tarjima va yangi soʻzlar lugʻati. Mavzuga oid vazifani bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,127-130).

34-mavzu: Feʼle ejbori – Feʼlining orttirma nisbati (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Matn ustida ishlash. Tarjima va matnga savollar tuzish. Mavzuga oid vazifani bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,131-132).

35-mavzu: Yozma ish (2 soat)

36-mavzu: Sifat darajalari (2 soat)

Sefate mutlagʻ - oddiy daraja

Sefate tafzili - qiyosiy daraja

Sefate oliy – orttirma daraja.

Misollar vositasida tushuntirish. Matn ustida ishlash. Tarjima va lug`at tuzish. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,133-135).

37-mavzu: Sifatlarning yasalishi (2 soat)

Sifat yasovchi asosiy qo`shimchalar:

1. –mand, nok – egalikni bildiruvchi;
2. –in, -ine. –yasalganlik - hamjinslikni bildiradi;
3. –i yoye nisbat – munosabatni tegishligi ekanligini, ishlangan material ma'nolarini bildiradi;
4. –bo – egalikni bildiradi, -bi –ega emasligini bildiradi. Matn ustida ishlash. Tarjima va lug`at bilan ishlash. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,136-138).

38-mavzu: Fe'llarning yasalishi (2 soat)

Tub, yasama va qo`shma fe'llar. Fe'l otga -idan qo`shimchasi bilan qo`shilishi. Fe'llarda fe'l yasovchi old qo`shimchalari: bar, dar, faro, furu, furud, bo, boz. Murakkab fe'llarning yasalishi. Matn va tarjima. Yangi lug`atlar tuzish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,139-141).

39-mavzu: Otlarning yasalishi (2 soat)

Sermahsul ot yasovchi qo`shimchalar. Otlarning sintaktik –kompozitsiya yo`li bilan yasalishi. Misollar orqali tushuntirish. Matn ustida ishlash. Matnga oid savollar tuzish. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnihat mashqi.

Adabiyotlar: (1,142-145).

40-mavzu: Yozma ish (2 soat)

41-mavzu: Payt ergash gapli qo`shma gaplar (2 soat)

Misollar vositasida tushuntirish. Bog`lovchi va bog`lovchi o`rnidagi payt ma'nosini bildiruvchi so`zlar: vag`tike, chun, hangomike, haminke, pas az onke, ba'd az onke, g`abl az onke, pish az onke. Matn ustida ishlash. Tarjima va yangi lug`atlar tuzish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,146-148).

42-mavzu: Shart ergash gapli qo`shma gaplar (2 soat)

Shart ergash gap bosh gapdan oldin kelishi va bosh gap agar bog`lovchisi yordamida bog`lanishi. Misollar vositasida tushuntirish. Matn ustida ishlash. Tarjima va lug`at. Mavzuga oid vazifalarni bajarish. Husnixat mashqi.

Adabiyotlar: (1,149-151).

NAZORAT ISHI MAVZULARI (sirtqi)

1. Ot kesimli sodda yig`iq gap.
2. So`roq gaplar.
3. **Ast** bog`amasining tuslanishi.
4. Bog`lamasning to`liq shakli **hast** so`zi haqda.
5. Olmoshlar va egalik qo`shimchalari.
6. Izofa.
7. Otning ko`pligi.
8. Sanoq sonlar.
9. Fe`l zamonlari.
10. O`tgan zamon davom fe`li.

«Fors tili» fanidan yozma ish variantlari

1. «To`ti» – 92 – bet.
2. «Libose ko`hne va no`v» – 98-bet.
3. «Kore ro`zoneye man» – 110-bet.
4. «Xare borkash va sage xushyor» – 125-bet.
5. «Du nag`g`osh» – 132-bet.
6. «Amirzode va fag`irzode» – 137-bet.
7. «Nuvkare ahmag`» – 141-bet.
8. «Sa`di» – 144-bet.
9. «Shaxse makkor» – 153-bet.
10. «Kajdum va sangpo`sht» – 155-bet.

ADABIYOT: L.Xalilov. «Fors tili» darsligi. Toshkent, 1992 y.

ASOSIY ADABIYOT

1. L.Xalilov Fors tili. Toshkent, O`qituvchi, 1992.

QO`SYIMChA ADABIYOTLAR

1. A.Abdusamatov Fors tili. Toshkent, O`qituvchi, 1977.
2. M.Abdusamatov -O`zbekcha-ruscha-forscha so`zlashgich. Qomuslar. Bosh tahririyati.
1. A.Ahmedov «Fors tili» fanidan yozma ishlar to`plami. Angren. 2005.